



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORI
BUYRUG‘I

10.03.2026-yil

№ 77-A

Denov tumani

2025/2026-o‘quv yili bitiruvchilarining bandligini ta‘minlash va monitoringini olib borish hamda “Karyera markazi” faoliyatini takomillashtirish to‘g‘irsida

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 8-avgust kuni oliygohlar bitiruvchilarining bandligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda oliy ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi “Karyera markaz”lari samaradorligini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar, 2026-yil 24-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarga bag‘ishlangan muloqot uchrashuvida, yoshlar bandligi, xususan oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilari bandligini ta‘minlash bo‘yicha berilgan vazifalar hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 5-martdagi 84-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 8-avgust kuni oliygohlar bitiruvchilarining bandligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda oliy ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi “Karyera markaz”lari samaradorligini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar, 2026-yil 24-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarga bag‘ishlangan muloqot uchrashuvida, yoshlar bandligi, xususan oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilari bandligini ta‘minlash bo‘yicha berilgan vazifalar hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 5-martdagi 84-sonli buyrug‘i ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025/2026-o‘quv yili bitiruvchilarining bandligini ta‘minlash va monitoringini olib borish bo‘yicha shtab tarkibi (*keyingi o‘rinlarda shtab*) 1-ilovaga, 2025/2026-o‘quv yili bitiruvchilari bandligini ta‘minlash bo‘yicha “YO‘L XARITA” 2-ilovaga, Institutning “Karyera markazi”ning yangilangan Nizomi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Talabalar amaliyoti” bo‘limi bosh mutaxassisi Allanazarov Azamat Jumanazarovich asosiy ishdan ajralmagan holda jamoatchilik asosida “Karyera markazi” rahbari etib belgilansin.

4. Shtab rahbari U.Bo‘tayev va shtab a‘zolariga:

bitiruvchilar bandligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Soliq qo‘mitasining maxsus platformalari orqali doimiy tahlil qilib borish;

tahlil natijalariga ko‘ra ish bilan ta‘minlanmagan bitiruvchilarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish, ushbu ma‘lumotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning hududiy bo‘limlariga taqdim etish orqali mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga yo‘naltirish;

2025/2026-o‘quv yili bitiruvchilari bandligini ta‘minlash bo‘yicha “YO‘L XARITASI”da belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta‘minlash;

tahlil natijalariga ko‘ra bandligi ta‘minlanmagan har bir bitiruvchi bilan individual suhbat o‘tkazib ularning rejalarini, ishga joylashmaganlik sabablarini o‘rganish;

kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda bitiruvchilarni mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirish choralari ko‘rish;

o‘qishdan chetlatilgan, kursdan qoldirilgan, akademik qarzdor bo‘lgan talabalar bilan tizimli ishlashni yo‘lga qo‘yish vazifalari yuklatilsin.

5. Moliya ishlari bo‘yicha prorektor D.Tursunov, “Reja-moliya” bo‘limi R.Xalimov hamda buxgalteriya bo‘limi F.Valixonovga:

“Karyera markazi”ning takliflarini inobatga olgan holda jihozlash, kompyuter, printer, konselyariya mahsulotlarini shuningdek, zaruriy ish yuritish uskunalari bilan ta‘minlash;

Ichki o‘rindoshlik asosida qo‘shimcha vazifa yuklatilayotganligi sababli A.Allanazarovga oylik maoshiga 2026-yil mart oyidan 50% (ellik) miqdorda ustama belgilash vazifalari yuklatilsin.

6. Institut rektorining 2025-yil 1-dekabrdagi 405-K sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

7. Devonxona va arxiv mudiri G‘.Xo‘shboqovga mazkur buyruqni mas‘ullarga yetkazsin.

8. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos. Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 13-fevraldagi 7-q/q-son hamda O‘zmilliybank AJ ning 2026-yil 13-fevraldagi 2-son qo‘shma, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 5-martdagi 84-sonli buyrug‘i

Rektor



O.Ruziyev